


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMYX XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnalni bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririylashriyot bo'limga tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

| | | | |
|-------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------|--|
| FARMONOV Sh. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof. | ZUOGANG PENG (Xitoy) | Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof |
| ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof | PANASYUK M (Rossiya) | Qozon federal universiteti, g.f.d, profr |
| A'ZAMOV A (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof | VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) | Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof |
| SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston) | O'zRFA t.f.d., prof | SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston) | Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof |
| TURAYEV A. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof | ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya) | Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq. |
| RASHIDOOVA S. (O'zbekiston) | O'zRFA k.f.d., prof | SCOTT LEVI (AQSH) | Ohio State University, PhD, prof |
| ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston) | OshDU k.f.n., dots | AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston) | Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti |
| TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, b.f.d., prof | SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya) | Ataturk University |
| G'ULOMOV S. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, i.f.d., prof | SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston) | E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti |
| JUMABEKOVA B (Qozog'iston) | b.f.d., prof | | |

Tahririylashriyot kengashi

IJTIMOY FANLAR BO'YICHA

| | | | |
|-----------------|--|----------------|----------------------------|
| XONKELDIYEVA G. | FarDU, i.f.d., prof. | SIDDIQOV I. | FarDU, f.f.d., prof |
| XAKIMOV N. | FarDU, f.f.d., dots. | YULDASHEV S. | FarDU, f.f.d. (DSc) |
| ISOMIDDINOV M. | FarDU, t.f.d., prof | G'ANIYEV B. | FarDU, f.f.d., (DSc) dots. |
| USMONOV B. | FarDU, t.f.d., prof | QOSIMOV A. | FarDU, f.f.d., prof. |
| MAXMUDOV O. | FarDU, t.f.d., dots | QAMBAROV A.A | FarDU, f.f.d., prof |
| QAHHOROVA M. | Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof. | ALIMOVA N.O | FarDU, t.f.b.f.d., dots |
| QAMBAROV A. | FarDU, f.f.d.prof. | XASANOV M.X | FarDU, t.f.b.f.d., prof |
| MAMATOV M. | FarDU, f.f.d., prof. | SHAMSIYEVA M.X | FarDU, t.f.b.f.d., dots |
| DADABAYEVA | FarDU, yu.f.f.d., dots | | |

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rınboyev I.

Tahririylashriyot manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

Sh.Abdug'affor

XX asr boshlarida Farg'ona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Ta'llimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.Qodirova

XX asrning 20-30 yillarda O'zbekiston SSR maktablarida tarix fanining

o'qitilishi masalalari 111

J.Sultonov

Chingizxonning tangut davlatini egallash yo'lidagi o'ziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qataq'on siyosati qurboni bo'lgan jadidlarning reabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yo'ichihev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsumov

Mustaqillik yillarda Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga ta'siri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik an'analari bilan bog'liq nomoddiy madaniyat (Farg'ona vodiysi misolida) 141

F.I.Qayumova

XX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar

(Farg'ona vodiysi misolida) 147

B.A.Usmonov

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157



УО'К: 316.42:1(575.2)

**QATAG'ON SIYOSATI QURBONI BO'LGAN JADIDLARNING REABILITATSIYA
QILINISHI**

**РЕАБИЛИТАЦИЯ ДЖАДИДОВ, ЯВЛЯЮЩИХСЯ ЖЕРТВАМИ ПОЛИТИКИ
РЕПРЕССИЙ**

REHABILITATION OF JADIDS WHO ARE VICTIMS OF REPRESSION POLICY

Abdulxayev Elyorbek Kaxramonjon o'g'li 

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, "O'zbek tili va ijtimoiy fanlar" kafedrasи assistenti

Annotatsiya

Maqolada XIX asrning oxirlarida O'rta Osiyoda dastlab ma'rifatparvarlik harakati sifatida maydonga kelib, 1917-yil fevrali voqealaridan so'ng siyosiy harakatga aylangan jadidchilik harakatining tarixi, XX asrning 20-30-yillarda sovet hokimiyatining jazolovchi idoralari tomonidan ularning nohaqdan qatag'on qilinishi hamda qatag'on qurban bo'lgan jadidlarning reabilitatsiya qilinishiga doir ma'lumotlar o'rinn olgan.

Аннотация

В статье рассматривается история джадидизма, который в конце XIX века возник в Средней Азии как движение просветителей и стал политическим движением после февральских событий 1917 года, а также информация о репрессиях, которым подверглись джадиды в 20-30-х годах XX века со стороны карательных органов советской власти, и о реабилитации жертв репрессий.

Abstract

The article considers the history of Jadidism, which at the end of the 19th century arose in Central Asia as the movement of enlighteners and became a political movement after the February events of 1917, as well as information about the repressions that Jadids were subjected to in the 20-30s of the XX century by punitive bodies Soviet power, and the rehabilitation of victims of repression.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, qatag'on siyosati, reabilitatsiya, maqsad, meros, xotira, yodgorliklar.

Ключевые слова: Движение джадидизма, общественно-политические процессы, политика репрессий, реабилитация, цель, наследие, память, памятники.

Keywords: Jadidism movement, socio-political processes, politics of repression, rehabilitation, purpose, heritage, memory, monuments.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan uning tarixiy hayotida yangi – uyg'onish, o'zlikni anglash davri boshlandi. Avvalgi ma'muriy buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan tarixni soxtalashtirish, noto'g'ri talqin etishga barham berildi. Milliy mafkuramizning asosi bo'lmish milliy tarixni qayta tiklash imkoniyati tug'ildi. Jumladan, XIX asrning oxirlarida O'rta Osiyoda dastlab ma'rifatparvarlik harakati sifatida maydonga kelib, 1917-yil fevrali voqealaridan so'ng siyosiy harakatga aylangan jadidchilik harakati tarixiga ham yangicha, haqqoniy qarashlar, o'rganish boshlandi.

Sovet hokimiyati tomonidan 1920-30-yillarda nohaqdan qatag'on qurban bo'lgan jadidlarning reabilitatsiya qilinishi — bu O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng amalga oshirilgan tarixiy jarayonlardan biridir. Sovet Ittifoqi davrida jadidlarning ko'plab vakillari ta'qib qilindi, qatag'on qilingan, ular o'z faoliyatlari va g'oyalari uchun jazolangan. Mustaqillikni qo'llga kiritgach, jadidlarning xizmatlari qayta baholandi, ularning reabilitatsiya qilinishi boshlandi.

Shu o'rinda, qatag'on siyosati qanday shakllangan? U nima? "Lotincha "repressiya" so'zi (repressio) bosim, tazyiq ma'nosini anglatadi. Bu so'zning o'zbekcha ma'nosi qatag'on tushunchasiga to'g'ri keladi. Repressiya, qatag'on partiya va davlat organlari qo'llaydigan jazo chorasiidir. Qatag'on mustabid, totalitar davlat tomonidan xalqqa nisbatan qo'llaniladigan jazlolash, qatl om, ommaviy tarzda zulm o'tkazish tushunchalarini o'zida mujassam etadi. Qatag'on, ommaviy

TARIX

jazolash, qyinoqqa solish, choralar mustabid davlatlarning xalqni asoratda, tutqunlikda ushlab turish, qo'rqtish, bosim, tazyiq o'tkazish qurolidir." [1. B 312 – 313].

"Ayniqsa, bu "ish" O'zbekistonda og'ir kechdi. Taniqli tarixchi olim Islomjon Tursunov O'zbekiston ziyolilaridan 1939-1953-yillarda jami bo'lib 61 ming 799 kishi qamalganligi, shulardan 56 ming 112 kishi turli muddat bilan ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganligi, 7 ming 100 kishi esa otib tashlanganligini yozadi[2. B – 33].

Jadidlarning reabilitatsiya qilinishi O'zbekiston tarixida muhim voqeа bo'lib, sovet davrida qatag'on qilingan ma'rifatparvarlarning nomini tiklash va ularning merosini qayta kashf qilish jarayonidir. Sovet tuzumi davrida jadidlar milliy uyg'onish harakatining yetakchilari sifatida siyosiy va ma'naviy faoliyatları uchun "xalq dushmani" sifatida tamg'alangan edi. Ularning ko'pchiligi 1930-yillardagi qatag'on davrida qatl etildi yoki qamoqqa tashlandi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METADOLOGIYA

O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va ularning faoliyati qatag'on siyosati qurboni bo'lishi hamda ularning xotirasi bilan bog'liq masalalar hamma davrda ham dolzarb bo'lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Qatag'on siyosati hamda jadidchilik harakati jarayonlari - paydo bo'lish tarixi, ularning jamiat rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etish tarix fanining eng dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

Mustaqillik tufayli sovet hokimiyatining o'rnatilishi hamda mustahkamlanishi jarayonida hamda 1937-1938-yillardagi "Katta terror" davrida qatag'on qilingan minglab vatandoshlarimizning ayanchli qismati tarixini o'rganish yuzasidan respublikamiz hamda xorijda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshrildi. Jumladan professor R.T. Shamsutdinovning "Istiqlol yo'lida shaxid ketganlar. – Toshkent: Sharq, 2001., "Qatag'on qurbonlari" - Toshkent: Sharq, 2007., "Qatag'on qurbonlari (1938- fevral, sentabr)". Beshinchi kitob - Toshkent: Sharq, 2012., "Qatag'on qilingan yurdoshlarni xotirlab" - Toshkent: Akademnashr, 2018 kabi asarlarida ko'rilib yozilgan davrda qatag'on domiga tortilgan ko'plab jadid marifatparvarlarining taqdiringa doir ma'lumotlar o'rin olgan[3. B – 6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan "Jadidlar" (Toshkent, 2022) to'plami nashr qilindi hamda "Jadid" Adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazetasi 2024-yildan chop etila boshladi.

Ushbu maqola tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil hamda muammoga tizimli yondashuv tamoyili tashkil etadi. Bu tamoyillar XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmi davridagi O'rta Osiyo tarixiy o'zgarishlar bilan o'zaro bog'liqliklarni hisobga olgan holda tahlil etishni o'z ichiga oladi va tarixiy jarayonni real va izchil yoritish imkonini beradi. Ayni paytda tadqiqot tarixiy voqelikni o'rganishning muammoli-xronologik usuliga asoslanadi. Bu esa ma'lum bir tarixiy davrning boshida va oxiridagi jarayonlar va xodisalarning xususiyatlari va farqli jihatlarini solishtirish, shuningdek, amaliy harakatlar oqibatlarini kuzatish imkonini beradi.

NATIJA VA MUXOKAMA

"Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 7-martda jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konfrensiya ishtiroychilariga yo'llagan tabrigida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator Sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o'lkasida teran tarixiy ildizlarga ega ekani, yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy ahamiyatga ega bu jarayondan chetda qolmagani, aksincha bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini aytib, jadidlarning milliy davlatchilikka qo'shgan hissasini o'rganish dolzarbligicha qolayotganini alohida ta'kidlab o'tdi." [4. B – 4].

Jadidlar harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston va Markaziy Osiyoda mustamlakachilikka qarshi kurashish, ta'lif va madaniyat sohasida islohotlar qilishni maqsad qilgan intellektual guruh edi. Ularning g'oyalari, ta'lif tizimini isloh qilish, xalqni uyg'otish, yangi ilm-fan va texnologiyalarni joriy etish kabi prinsiplar ular tomonidan ilgari surilgan edi.

Biroq Sovet Ittifoqining tashkil topishi bilan jadidlarning faolligi va milliy g'oyalari ko'plab repressiyalarga uchradi. Ular "burjua millatchilar", "inqilobga qarshi kuchlar", "imperializmga xizmat qiluvchi" deb ayblanib, ko'plab jadidlar qamoqqa olindi, ularning ba'zilari surgun qilindi yoki qatl etildi.

Jadidlarning reabilitatsiya qilinishi — bu asosan 1956 yil SSSRda bo'lib o'tgan kommunistik partiyaning XX s'ezdidan keyingi davrlardan boshlandi. Keyinroq esa SSSR parchalanishi arafasi, ya'niy, 1980-yillar oxiri va 1990-yillarda hamda mustaqillik yillarida ham reabilitasiya jarayondlari amalga oshrildi.

Jadidlar harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo va Turkiston hududlarida faoliyat yuritgan, o'z davrining yangiliklarni qabul qilishni targ'ib qilgan intellektual va ijtimoiy guruhdir. Ular ta'lif tizimini isloq qilish, yangi uslubdagi maktablar ochish, adabiyot va madaniyatni rivojlantirishga intilganlar.

Jadidlarning reabilitatsiya qilinishi quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

I. Sovet davri: Jadidlar, ayniqsa, Sovet Ittifoqi davrida ko'plab tazyqlarga uchradi. Ular "imperializmga xizmat qiluvchi" deb hisoblangan va aksariyat hollarda o'z faoliyatları yoki g'oyalari qarshi repressiyalarga duchor bo'lgan. Jadidlarning fikrlarini va harakatlarini Sovet hukumatining ideologiyasi bilan to'qnashuvga kirib, ular ko'plab ta'qiblarga uchradi.

II. Mustaqillikdan so'ng: 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, jadidlar harakatining roli va ularning tarixi qayta baholandi. Mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, O'zbekiston hukumatining madaniy va ijtimoiy rivojlanish siyosatida jadidlar g'oyalari va ularning ta'lif ishlari qayta kiritildi. Jadidlarning ilgari surgan fikrlari, ya'ni zamonaviy bilimlarni kengaytirish, ilm-fan va ta'lifni isloq qilish singari g'oyalalar bugungi kunda milliy siyosatning bir qismiga aylangan.

III. Tarixiy reabilitatsiya: Ma'lumki dastavallida ma'rifatpavrvarlik g'oyalarni o'lkada yoyishga intilgan jadidlar 1917-yil voqealaridan so'ng siyosiy harakatga aylandi. Bolisheviklar hokimiyatiga nisbatan muxolifatda bo'lgan kuchlar ya'ni milliy taraqqiyat parvar ziyorilar (jadidlar) kurashning yangi usullariga o'tishga majbur bo'lgan. Bu davrga kelib, ayniqsa 1918-yil fevralda Turkiston Muxtoriyatining bolisheviklar tomonidan ag'darib tashlangandan so'ng, endi Turkiston ziyorilari uchun qanday turdag'i davlat qurish emas, balki qanday qilib bo'lsa ham mustamlakachilikning yangi ko'rinishidan qutilib qolish muhimroq edi.

Shunday vaziyatda davlatning shakli qanday bo'lishidan ko'ra, ozod bo'lib qolish masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Shu holda Turkiston ziyorilari o'rnatilgan yangi tuzum sharoitida siyosiy va ijtimoiy qarashlariga ko'ra turli yo'nalishga bo'lingan holda faoliyat yuritishlari tabiiy bir hol edi. Shunday sharoitda jadidlar faoliyatida uch yo'nalish paydo bo'ldi.

1-yo'nalish: o'z maqsad-intilishlarini sovet davlati idoralarida amalga oshirmoqchi bo'lgan, sovet davlatining yolg'on va'dalariga ishongan ziyorilar. Bular, Fayzullo Xo'jaev, Polvonniyoz Yusupov, Hamza Hakimzoda, Ubaydulloxo'ja Asadullaxo'jaev, So'fizoda, I.Davron, A. Fitrat va b.

2-yo'nalish: sovet davlatining siyosatidan norozi bo'lib, o'z yurtini tashlab xorijga chiqib ketgan ziyorilar: Mustafo Cho'qaev, Alixonto'ra Sog'uniy, Ahmad Zaki Validiy va h.z.

3-yo'nalish: sovet davlatini mustamlakachi davlat sifatida taniganlar. Yangi tuzumga ishonmagan va unga qarshi qurolli kurashga boshchilik qilgan ziyorilar. Bular: Kamolxon qozi, Sayyid Nosirxon to'ra Kamolxon to'ra, Eshonxo'ja Xoni va istiqlolchilik harakatining boshqa barcha etakchilari. Ular ham asli ziyorilar edi.

Bolisheviklar o'rnatgan sovet hokimiyatiga qarshi bo'lgan fidoyi ziyorilar kurashning yangi yo'liga o'tishini yuzaga kelayotgan tarixiy vaziyatning o'zi taqozo etardi. Ana shu ziyorilarning bir toifasi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash qatnashchilariga rahnamolik qildi, yana bir guruhi millatni yagona maqsad yo'lida birlashtirib, mustamlakachi sovet hokimiyatiga qarshi ongli siyosiy kurashga boshlab borishga qodir siyosiy jamiyat va tashkilotlar tuzishga intildilar. Bu amaldagi bolisheviklar partiyasiga qarshi muxolifatdag'i tashkilot hamda jamiyatlarni maydonga keltirdi. Afsuski sovet hokimiyatining qatag'on siyosati natijasida bu milliy ziyorilarning aksariyati, totalitar tartibotni qaror topimshi jarayonida qatag'on qilindi.

Mustaqillikdan keyin jadidlarning ijtimoiy va siyosiy roli qayta tiklandi. Ular milliy mafkura va ta'lif sohasidagi yangiliklarni targ'ib qilgan eng ilg'or shaxslar sifatida tan olindi. Jadidlarning shaxsiyati, ularning ta'lifma bo'lgan e'tibori va islohotlarni amalga oshirishdagi roli haqida ilmiy tadqiqotlar olib borildi va ular o'z xalqining rivojiga katta hissa qo'shgan mutafakkirlar sifatida yod etilmoqda.

Shu tariqa, jadidlarning reabilitatsiya qilinishi nafaqat siyosiy, balki madaniy va ilmiy nuqtai nazardan ham muhim bir jarayon bo'ldi. Ular, o'z davrida ko'plab qarshiliklarga duchor bo'lishiga qaramay, endi yangi tarixiy kontekstda ijtimoiy va ilmiy meros sifatida qadrlanadi.

Muhim reabilitatsiya qilingan jadidlar: Abdulla Qodiriy, Cho'pon, Fitrat, Munavarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab bunday qatag'on siyosati qurbanib bo'lgan jadidlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ularning adabiy, ma'rifiy va siyosiy merosi bugungi O'zbekistonning milliy ma'nnaviy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Reabilitatsiya jarayoni davomida jadidlarning asl maqsadlari – xalqni savodli qilish, millatni uyg'otish va mustaqillikka erishish – keng jamoatchilik tomonidan yana bir bor qadrlanmoqda.

TARIX

Sovet Ittifoqi inqirozga yuz tutganda va mustaqillik arafasida O'zbekistonda jadidlarning merosi qayta o'rganila boshlandi. Ularning ilmiy, madaniy va siyosiy faoliyati haqidagi haqiqat ommaga oshkor qilindi.

Jadidlar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, konferensiyalar va kitoblar chop etildi. Ularning ishlari maktab darsliklariga kiritilib, yangi avlodga ularning milliy uyg'onish yo'lidagi xizmatlari haqida bilim berila boshlandi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenting 19.07.2024-yildagi PQ-270-son Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida qarori qabul qilindi." [5. B – 4].

Shu narsa ma'lumki, 1937-1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan 100 mingdan ortiq insonlar qatag'on siyosatining qurboni bo'lgan. Ushu yurtdoshlarimizning 13 ming nafari otib tashlangan, minglab kishilar nohaq qulq qilingan, surgunlarga jo'natilgan. Ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, diniy ulamolar, harbiy soha va sudhuquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar va ularning oila a'zolari bo'lgan.

Yurtimizning milliy istiqolli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo'lida jonini fido qilgan, siyosiy qatag'on qurbonlari bo'lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini atroficha o'rganish va tadqiq qilish, ularning nomlari va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha keyingi yillarda yurtimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2021-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan 1 ming, 200 dan ziyod siyosiy qatag'on qurbonlarining nomlari oqlandi.

Qatag'on qurbonlarini xotirlash kuni 31-avgust va maxsus yodgorliklar ochilishi orqali jadidlar xotirasi mustahkamlandi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik davrida jadidlarning ijtimoiy, madaniy va ilmiy merosi ham qayta tiklandi. Ularning adabiyotga, san'atga va ijtimoiy hayotga qo'shgan hissasi haqida ko'plab Kitoblar va ilmiy maqolalar nashr qilindi. Jadidlar faqat ta'lif islohotchisi emas, balki xalqning madaniy o'zgartirishlariga ulkan hissa qo'shgan shaxslar sifatida qadrlanmoqda.

Mustaqillikdan so'ng jadidlarning qatag'on qurboni bo'lganlarining reabilitatsiya qilinishi — bu tarixiy adolatni tiklash va milliy qadriyatlarni qayta tiklash jarayoni bo'ldi. Jadidlarning bilim, ta'lif va madaniyatga oid g'oyalari bugungi kunda ham jamiyatning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon o'z navbatida, jamiyatni yanada erkin va ilg'or fikrashga chaqiradi.

Biz ushbu qatag'on qurboni bo'lgan jadidlarning mustaqillik yo'lida qilgan ishlarni o'rganishimiz hamda kelajak avlodga yetkazishim zarur. Ularning qilgan ishlari bizda vataparvarlik tuyg'usunu uyg'otadi. Ularning nomlarini har birimiz bilishimiz va xotirlashimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. T.7 – Toshkent: O'zME, 2004. – B.312-313.
2. Турсунов И. Истиклолга интилган қалблар нидоси. – Т.:1993. - Б 33
3. R.T.Shamsutdinov, J.M.Xasanov, E.A.Tojimirzayev - Qatag'on qurbonlari xotira kitobi Andijon viloyati (1865-1991) . – Toshkent: Akademnashr 2021.- B 6.
4. R.Shamsutdinov, S.Xoshimov, N.Akbarova O'rta osiyodagi jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: Akademnashr 2024.- B 4.
5. <https://lex.uz/docs/-7027939>.
6. R.Sharipov Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. . – T: O'qituvchi, 2002